

Mening konstitutsiyam - tinch, to'kin hayotim kafolati



Mening konstitutsiyam - tinch, to'kin hayotim kafolati

Kecha shahar hokimligi majlislar zalida Termiz shahar Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i Z.Meyliev, o'rinbosari T.Berdiev va shahar adliya bo'limi boshlig'i A.Jabborovlar hamda mahalla raislari, mehnat jamoalari va jamoatchilik vakillari ishtirokida «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni loyihasining umumxalq muhokamasiga bag'ishlangan ochiq muloqot bo'lib o'tdi.

Dastlab barcha o'zgarishlar zamirida inson qadrini ulug'lash tamoyili yotgani, islohotlarning tub zamirida "Inson-jamiyat-davlat" strategiyasi pirovard maqsad qilib olinganligi ta'kidlandi. Har bir o'zgarishlar hayotiy zarurat ekani misollar bilan tushuntirib berildi.

Shuningdek, muloqotda ishtirokchilarining ham fikr-mulohazalari tinglanib, mazkur

jarayonlarni aholiga yetkazishda jonbozlik ko'rsatishga chaqirildi.

Image not found or type unknown




Image not found or type unknown

